KICHIK KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISH OMILLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI.....	1568
Mustafakulova Nodira Primovna	
BEVOSITA VA BILVOSITA SOLIQQA TORTISHNI OPTIMAL TASHKIL ETISH METODOLOGIYASI	1572
Qodirov Baxodir Qudratovich	
SUT VA SUT MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING USLUBIY JIHATLARI	1577
Normuradov Nurbek Sunatilloevich	
ЦИФРОВИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ВНУТРЕННИЙ АУДИТ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ	1581
Шарахметов Шерзад Шаазимович	
O'ZBEKISTON "YASHIL" IQTISODIYOT SARI: QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH METODLARI.....	1588
Qodirov Baxodir Tursunovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNING MOHIYATI VA MAZMUNI.....	1592
Feruza Mirzoyeva Salimovna	
YASHIL O'SISH, YASHIL IQTISODIYOT VA BARQAROR RIVOJLANISH: ATAMAVIY VA O'ZARO BOG'LIQLIK MASALASI.....	1597
Djalilov Sardor Sadilloevich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI RIVOJLANTIRISH ORQALI DAROMAD VA XARAJATLARNI DEKLARASIYALASHNING TUTGAN O'RNI	1601
Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich	
DIGITAL ECONOMY AND GREEN TECHNOLOGIES: INNOVATIONS ON THE ROAD TO SUSTAINABLE DEVELOPMENT	1606
Amiriddinova Madinabonu Zayniddin kizi	
FARG'ONA VODIYSIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TO'QIMACHILIK KORXONALARINING EKSPORT SALOHİYATI TAHLILI VA ULARNI BAHOLASH	1609
Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li	
SIFAT VA RAQOBATBARDOSHLIK.....	1616
Xasanova Robiyaxon Kamoliddin qizi, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
O'ZBEKISTONDA IPOTEKA KREDITLASH JARAYONINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	1620
Mardiyev Akrom Djumaboyevich	
BIRLAMCHI TIBBIY-SANITARIYA MUASSASALARINI NATIJADORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA MOLIYALASHTIRISH ISTIQBOLLARI	1627
S.J. Sultanov	
TIJORAT BANKLARIDA KOMPLAENS NAZORAT VA MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1633
Ulashbayev Shohruh Abdivaxobovich	
BIOMASSA ASOSIDA OZUQA ISHLAB CHIQARISH ORQALI IQTISODIY SAMARADORLIKGA ERISHISHNING AYRIM JIHATLARI.....	1639
Xazratkulov Niyoz Namazbayevich	
STRATEGIC MANAGEMENT AND DEVELOPMENT OF CORPORATE TALENTS	1644
Shoyunusova Arofat, Sanjar Mirzaliev	
AGROTIZIMDA ANOR YETISHTIRISHNING O'RNI VA IQTISODIY AHAMIYATI	1648
Ortiqov Sulton Davronqul o'g'li	
TO'QIMACHILIK SANOATINI HOZIRGI KUNDAGI TAHLILI	1652
Mahmudova Chinora Anvar qizi	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHDA IMTIYOZLAR VA KAFOLATLAR TIZIMINING AHAMIYATI	1657
Nizamov Xusniddin Fazliddinovich	
SANOAT TARKIBIY O'ZGARISHLARINING IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRINING EKONOMETRIK TAHLILI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	1663
Jumaniyazov Nodirbek Odilbek o'g'li	



MINTAQAVIY RIVOJLANISH SHAROITIDA SHAHARLAR AGLOMERATSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI.....	1670
Abdulkakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
TIBBIY XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALAR SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR.....	1674
O'roqov Firdavs Ortiqniyoz o'g'li	
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И МЕТОДЫ ФИНАНСОВОГО АНАЛИЗА В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АКЦИОНЕРНЫХ КОМПАНИЙ.....	1678
Бекбаева Феруза Бахтиеровна	
AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA BUDJET BILAN HISOB-KITOBLAR AUDITINI TASHKIL QILISHNING AMALIY JIHATLARI.....	1684
Rashidov Zuhridin Sanjar o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1690
Radjabov Umurzoq Ablakulovich	
АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРАКТИКИ УПРАВЛЕНИЯ ВАЛЮТНЫМИ РИСКАМИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ	1695
Тугалов Бобур Қаршибой угли	
HAVO TRANSPORTI ORQALI YUK TASHUVCHI TADBIRKORLIK SHAKLLARI VA UNDAGI MUOMMOLAR	1703
Anvarova Dilfuza Abdusattor qizi	
HUDUDIY IQTISODIYOTDA INNOVATSION SIYOSAT MEXANIZMINI SHAKLLANTIRISHNING TIZIMLI MODELI	1709
G'aniyev Sanjar Poziljon o'g'li	
СОВРЕМЕННАЯ МОДЕЛЬ УЧЕТА ЗАТРАТ И АУДИТА В УЗБЕКИСТАНЕ: НАЦИОНАЛЬНАЯ БАЗА И МСА.....	1716
Юлчиев Ойбек Улугбек ўгли	
TIJORAT BANKLARIDA YANGI BANK XIZMATLARINI JORIY ETISHDA XORIJIY Tajribalarni INTEGRATSIYALASH YO'LLARI.....	1723
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH DAVRIDA KICHIK BIZNES IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH.....	1731
Isroilov Dilshodbek Rustamovich, Isroilova Odina Rustambek qizi	
O'RMON XO'JALIGINI MOLIYALASHTIRISHDA MOLIYAVIY RESURLAR VA MANBALAR.....	1737
Mamatqulova Muxlisa Mamirjanovna	
ZAMONAVIY JAHON IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI, ISROFI VA YO'QOTISHLARINI KAMAYTIRISH MASALALARI.....	1743
Nazarova Gulbahor Raxmonkulovna	
KORXONA FOYDASI VA UNING RAQOBATBARDOSH NARX SIYOSATINI MAKSIMALLASHTIRISH YO'LLARI.....	1748
Axmadjonov Murodjon Axadjon o'g'li	
DEVELOPMENT PRIORITIES FOR THE FRUIT AND VEGETABLE SECTOR IN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN'S FOOD SECURITY POLICY	1754
Nazarova Munavvar Soatmurod qizi	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA HR MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1761
Xamroyeva Kumush Alisherovna	
QURILISH SANOATIDA BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI.....	1768
G'ulomova Shaxlo Baxtiyor qizi	
TURISTIK DESTINATSIYA TUSHUNCHASINING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI	1772
Bekberganov Izzat Hurmat o'g'li	
TRANSPORT XIZMATLARI BOZORI TUSHUNCHASI VA UNING IQTISODIYOTDAGI O'RNI	1775
Jo'rayeva Shahzoda Farhod qizi	
O'ZBEKISTONDA QURILISH MAXSULOTLARI ISHLAB CHIQUARADIGAN KORXONALARNING RAQOBATBARDOSHLIGI TAHLILI	1781
Yusufova Laylo G'ayrat qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BANK MAHSULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH TENDENSIYALARI.....	1788
Xujamuratov Abbos Mardonovich	
PR-BO'LIMI FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING TARKIBIY-FUNKTSIONAL YONDASHUVLARI.....	1792
Ergasheva Fotimaxon Ibragimovna	



TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS TENDENSIYALARI	1797
Xujakulova Odina Valijonovna	
DAVLATNING IQTISODIY MUVOZANAT VA BARQAROR RIVOJLANISHDAGI ROLI.....	1805
Uzoqov Bekzod Bozor o'g'li	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MAHALLIY MODA BRENDINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI.....	1810
Tuxtayeva Oydinoy Normamatovna	
DEVELOPMENT OF TOURISM INFRASTRUCTURE IN UZBEKISTAN	1817
Sadinova Maqsuda Azamjonovna	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING ISHSIZLIK DARAJASIGA TA'SIRINING EKONOMETRIK TAHLILI	1824
Raxmonov Bekzod Sharibjon o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1832
Djurayev Laziz Tursunboyevich	
TA'LIM TASHKILOTLARINI RIVOJLANTIRISHDA MARKETINGNING ROLI	1836
Raximov Faxriddin Shavkatovich, Abdullayev Ilyos Sultanovich	
TURIZM INDUSTRIYASI VA TURIZM INFRATUZILMASINING MOHIYATI HAMDA TARKIBIY QISMLARI	1844
Mo'minova Mavjuda Sharifovna	
МОДЕРНИЗАЦИЯ НАЛОГОВОЙ ПОЛИТИКИ КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА.....	1849
Бозорова Озода Рахимовна	
EKSPORT FAOLIYATINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH TIZIMINING INSTITUTSIONAL TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH YO'LLARI	1854
To'rayeva Yulduz Shamsiddin qizi	
ZAMONAVIY ISH JOYLARINI SHAKLLANTIRISHDA AYOLLARNING ROLI	1859
Tulyaganova Aziza	
MAMLAKAT IQTISODIYOTIGA INVESTISIYALARNI YO'NALTIRISHDA QULAY INVESTISION MUHITDAN OQILONA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	1864
Xikmatov Xayrullaxon Maxmurxonovich, Bo'riyev Lochinbek Ortiqbopoyevich	
O'ZBEKISTONDAGI KLASSTERLARNING FAOLIYATI TO'G'RSIDA	1870
Azimova Feruza Payziyevna, Yuldashev Samad Normo'minovich	
ФИНАНСОВОЕ ОЗДОРОВЛЕНИЕ КАК СТРАТЕГИЧЕСКИЙ ИНСТРУМЕНТ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ КОМПАНИИ	1875
Алиева Сусанна	
PUL-KREDIT SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	1881
A.A. Ismailov	
ALOQA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA INNOVATSION XIZMATLARNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	1887
Shirinova G.X.	
XIZMATLAR EKSPORTINI RIVOJLANTIRISH VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1893
Karshiyeva Charos Mamasoliyevna	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA RIVOJLANISHI: 2017-2025-YILLAR DINAMIKASI TAHLILI	1900
Sarsenbayev Baxitjan Abdulgazievich, Allamberganova Nargiza Kuanishbayevna, Turg'anbayeva Ramiza Tolibayevna	
ГЛОБАЛЬНЫЕ И ЛОКАЛЬНЫЕ ТРЕНДЫ ИННОВАЦИЙ В СФЕРЕ БАНКОВСКИХ УСЛУГ	1907
Махмадджанов Мухаммадали Музаффарович	
YO'LOVCHI TRANSPORT XIZMATLARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI	1912
Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Aktamov Abduvali Abdug'ani o'g'li	
BUXORO VILOYATIDA HUNARMANDCHILIK SOHASINING RIVOJLANISHI: EKONOMETRIK TAHLIL VA PROGNOZ (2014-2030-YILLAR)	1917
A.F. Ergasheva	
RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINING KORXONA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDAGI O'RNI.....	1930
Amonov Mirzohid Tuymuratovich	
OLIY TA'LIM TIZIMIDA XIZMAT KO'RSATUVCHI MUASSASALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH BO'YICHA NAZARIY YONDASHUVLAR.....	1937
Begmatova Ziyoda Zaxidjon qizi	



RISKNI SUG'URTALASH ORQALI KORXONA FAOLIYATINI OPTIMALLASHTIRISH.....	1942
Maxmudov Shoxruxbek Asror o'g'li	
GLOBAL STANDARDS AND PRACTICES IN MEDICAL TOURISM: AN IN-DEPTH ANALYSIS OF CURRENT TRENDS, CHALLENGES, AND REGULATORY FRAMEWORKS.....	1947
Adilova Diyora Ulugbekovna	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УПРАВЛЕНИЯ АКВАКУЛЬТУРНЫМ СЕКТОРОМ НА ОСНОВЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ СИСТЕМ И ТЕХНОЛОГИЙ ОПТИМИЗАЦИОННОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ.....	1952
Мырзатаев Саламат Муратбаевич, Аскаров Бахтияр Мамытович	
MINTAQAVIY SUG'URTA BOZORINING MINTAQANING IJTIMOIIY-IQTISODIY HOLATIGA TA'SIRI	1958
Xoltoyev Mirusmon Mirxamit o'g'li	
BANK XIZMATLARINING RAQAMLASHTIRILISHI DARAJASI VA FINTECH PLATFORMALARINING ROLI	1963
Abdullayeva Dilfuza Atajan qizi	
DEBITOR VA KREDITOR QARZDORLIKNING MOHIYATI VA ULARNING O'ZGARISH TENDENSIYALARI.....	1969
Jo'rayev Farruxbek Muxiddin o'g'li	
FARMATSEVTIKA FAOLIYATINING ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI	1972
Yaqubov Timurbek G'anibekovich	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF ECOLOGICAL ENTERPRISES' ACTIVITY	1976
D. Meiliyeva	
BUDJET MABLAG'LARINING BIR QISMINI JAMOATCHILIK FIKRI ASOSIDA MOLIYALASHTIRISH ISLOHOTLARI	1979
Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li	



BUDJET MABLAG'LARINING BIR QISMINI JAMOATCHILIK FIKRI ASOSIDA MOLIYALASHTIRISH ISLOHOTLARI



Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Mustaqil izlanuvchisi (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada tadqiqot davomida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tashkil etilgan "Ochiq budget" axborot portali orqali joriy yilda o'tkazilayotgan "Tashabbusli budget" jarayonlari doirasida amalga oshirilayotgan ishlar, fuqarolar tomonidan bildirilgan takliflar, ovoz berish jarayonlari hamda g'olib deb topilgan takliflarni moliyalashtirish holatlari yuzasidan huquqiy va tahliliy ma'lumotlar yoritilgan. Shuningdek, tashabbusli budjetlashtirish tizimida kelgusida amalga oshirilishi kutilayotgan yangi ishlar haqida ham so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: tashabbusli budget, ochiq budget, axborot portali, davlat budjeti, jamoatchilik fikri.

Abstract. This article presents legal and analytical information on the work carried out within the framework of the «Initiative Budget» process conducted this year through the «Open Budget» information portal organized by the Ministry of Finance of the Republic of Uzbekistan, proposals submitted by citizens, voting processes and cases of financing proposals recognized as winners, as well as on the work done within the framework of the «Open Budget» project.

Key words: initiative budget, Open budget, Citizens' budget, information portal, state budget, Citizens' opinion.

Аннотация. В данной статье представлена правовая и аналитическая информация о работе, проведенной в рамках процессов «Инициативный бюджет», проведенных в текущем году через информационный портал «Открытый бюджет», организованный Министерством финансов Республики Узбекистан, предложениях, внесенных гражданами, процессах голосования и случаях финансирования предложений, признанных победителями, а также о работе, проделанной в рамках проекта «Открытый бюджет».

Ключевые слова: инициативный бюджет, Открытый бюджет, информационный портал, государственный бюджет, общественный мнения.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng moliya, bank va soliq tizimlarida keng ko'lamli islohotlar jadal sur'atlarda olib borilmoqda. Bugungi kunda budget-soliq siyosati yo'nalishida izchil amalga oshirilayotgan islohotlarning markazida budget daromadlari va xarajatlarining samaradorligini oshirish masalasi muhim o'rin tutadi. Buning asosiy sababi shundaki, iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida budget-soliq tizimini takomillashtirish doimiy ehtiyoj sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mahalliy budjetlardan xarajatlarni moliyalashtirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash mahalliy ijroiya va vakillik organlari oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Odatda, ushbu masalalar bilan budget jarayonida ishtirok etuvchi turli vakolatli organlar shug'ullanadi. Biroq, mahalliy ijroiya va vakillik organlari e'tiboridan chetda qolayotgan ayrim muammolar ham mavjud.

Ma'lumki, fuqarolar o'z yashash joylari — mahalla, tuman yoki shahar darajasidagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yaxshi bilishadi. Shu sababli fuqarolar tomonidan ilgari surilgan loyihalar ko'pincha asosli va



amaliy ahamiyatga ega bo'ladi. Chunki ma'lum bir hududda uzoq vaqt yashayotgan fuqaro birinchi navbatda qaysi masalalarni hal etish lozimligini aniq ko'rsata oladi.

Tashabbusli budjet jarayonlarini joriy etgan har bir davlat o'zining milliy xususiyatlari, boshqaruv tizimi va normativ-huquqiy asoslariga tayanadi. Shu bois, har bir davlatda ushbu jarayonning o'ziga xos modeli shakllangan bo'lib, u qabul qilingan qonunlar, davlat dasturlari va tegishli me'yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ishtirokchi budjetlashtirish (participatory budgeting) jarayoni bo'yicha dastlabki ilmiy asoslar Porto Alegre tajribasiga tayanadi. Gianpaolo Baiocchi o'zining 2003-yildagi tadqiqotida Braziliyadagi bu jarayon siyosiy institutlar va fuqarolar o'rtasida yangi hamkorlik mexanizmini shakllantirganini ta'kidlaydi. U budjet mablag'larini taqsimlashda fuqarolarning bevosita ishtiroki korrupsiya darajasini kamaytirganini hamda mahalliy infratuzilma loyihalariga yo'naltirilgan mablag' hajmini oshirganini qayd etadi.

Brian Wampler o'zining keyingi tadqiqotida ishtirokchi budjetning muvaffaqiyat omillarini tahlil qilib, uning samaradorligi siyosiy irodaga, institutsional barqarorlikka va fuqarolarning o'zaro ishonchiga bog'liqligini ko'rsatadi. U Braziliya shaharlarida olib borilgan empirik kuzatuvlar orqali, bu mexanizm ijtimoiy adolatni mustahkamlash bilan birga, fuqarolik faolligini oshirishini ilmiy asoslab bergan.

Yves Cabannes o'z izlanishlarida ishtirokchi budjetlashtirishni fuqarolik demokratiyasining eng muhim vositalaridan biri sifatida baholab, u orqali mahalliy hokimiyatlar bilan aholining bevosita muloqoti kuchayishini asoslab o'tgan. Shu bilan birga, Yves Sintomer, Carsten Herzberg va Anja Röcke tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Yevropa davlatlari tajribasi o'rganilib, ishtirokchi budjetlashtirishning turli modellarini tahlil qilinadi. Ular bu jarayon faqat moliyaviy mexanizm emas, balki demokratiya va boshqaruvni chuqurlashtiruvchi institutsional vosita ekanini ta'kidlaydilar.

Anwar Shah tahriri ostida chop etilgan Jahon banki nashrida ishtirokchi budjetlashtirishning xalqaro amaliyotlari tizimli tarzda o'rganilgan. Tadqiqotda shaffoflik, javobgarlik va samaradorlikni oshirish uchun fuqarolarni budjet jarayoniga bosqichma-bosqich jalb etishning metodik asoslari keltirilgan. World Bank mutaxassislari tomonidan tayyorlangan 2018-yilgi qo'llanma esa bu jarayonni amaliy jihatdan tashkil etishning aniq algoritmlarini, xususan raqamli ovoz berish va ochiq ma'lumotlar tizimidan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqadi.

Markaziy Osiyo kontekstida UNDP Uzbekistan tomonidan tayyorlangan 2024-yilgi tahliliy hisobot O'zbekiston tajribasining dastlabki natijalarini yoritadi. Hisobotda "Tashabbusli budjet" loyihasi orqali aholining ijtimoiy loyihalarni tanlashdagi ishtiroki ortgani, biroq moliyaviy va institutsional mexanizmlarni yanada takomillashtirish zarurligi qayd etiladi. Shu bilan birga, Joshua C. Yang, Carina I. Hausladen va Dominik Peters kabi olimlar raqamli ovoz berish tizimlari orqali ishtirokchi budjetlash jarayonlarining adolatliligi va legalligi masalalariga e'tibor qaratib, kelgusida sun'iy intellekt yordamida tahlil mexanizmlarini kengaytirish zarurligini ta'kidlaydilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Moliya vazirligi huzuridagi "Ochiq budjet" portali hamda BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP) hisobotlari asosida yig'ildi. Olingan statistik va normativ ma'lumotlar qiyosiy tahlil, dinamik ketma-ketliklar va kontent-tahlil usullari yordamida qayta ishlanib, ishtirokchi budjetlashtirish samaradorligi baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tashabbusli budjetlashtirish — bu fuqarolar tomonidan bildirilgan takliflarni inobatga olgan holda budjet mablag'larining bir qismini taqsimlash va ularni fuqarolar ilgari surgan ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarga yo'naltirish, ya'ni moliyalashtirish amaliyotidir. Ushbu budjet mexanizmi G'arbiy va Sharqiy Yevropaning 20 dan ortiq davlati, shuningdek, Lotin Amerikasi, AQSh, Xitoy, Hindiston, Janubiy Koreya va boshqa ko'plab mamlakatlarda muvaffaqiyatli qo'llanmoqda.

O'zbekistonda so'nggi yillarda aholi turmush darajasini yaxshilash, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni bartaraf etish hamda infratuzilmani modernizatsiya qilish yo'nalishida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Joylarda yo'l ta'miri, ichimlik suvi ta'minoti, tabiiy gaz tarmoqlarini yangilash va ta'lim muassasalarini rekonstruksiya qilish kabi dolzarb masalalarni hal etish pirovard maqsadlardan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonlarda fuqarolarning faol ishtiroki, budjet mablag'lari sarflanishida ularning fuqarolik pozitsiyasini namoyon etish imkoniyati yaratilganini kuzatish mumkin.



Fuqarolarning budget jarayonida ishtirok etishi shaffoflik va ochiqlikni ta'minlash, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, davlat organlari faoliyati samaradorligini oshirish hamda korrupsiya holatlarining oldini olishga xizmat qiladi.

2019-yildan boshlab Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturi ko'magida jamoatchilik ixtiyoriga "Ochiq budget" axborot portalini ishga tushirildi va "Tashabbusli budget" jarayonlari yo'lga qo'yildi. 2021-yildan boshlab esa mazkur jarayonlar to'liq takomillashtirilib, yangilangan formatda amalga oshirilmoqda.

"Tashabbusli budget" jarayonlaridan kutilayotgan asosiy maqsadlar:

- aholining yillar davomida an'anaviy budget tizimida qamrab olinmagan muammolarini hal etish;
- aholining budget savodxonligini oshirish va budget mablag'larining maqsadli sarflanishiga ko'maklashish;
- fuqarolik jamiyatining hamjihatlik asosida shakllanishiga erishish;
- e'tibordan chetda qolayotgan ayrim ijtimoiy masalalarni fuqarolik jamiyati bilan hamkorlikda hal etish;
- mahalliy hokimiyat va fuqarolar tomonidan hududdagi muhim sohalar bo'yicha birgalikda qarorlar qabul qilish;
- fuqarolarni hududlarda amalga oshirilayotgan islohotlar yo'nalishlari hamda sarflanayotgan mablag'lar to'g'risida xabardor qilish.

Mamlakatimizda 2019-yildan buyon o'tkazilib kelinayotgan "Tashabbusli budget" jarayonlari ushbu tizimning jamiyat hayotidagi o'rni naqadar muhim ekanini ko'rsatdi. Bu jarayonlar aholining ijtimoiy faolligini oshirish, mahalliy muammolarni o'z vaqtida hal etish hamda davlat va jamoatchilik o'rtasidagi ishonchni mustahkamlashda muhim "dastak" sifatida xizmat qilmoqda.

2021-yilda o'tkazilgan tashabbusli budgetlashtirish jarayonida fuqarolardan kelib tushgan murojaatlarda bayon etilgan o'rinli va dolzarb muammolarni qisqa muddatlarda hal etish, davlat budgetini shakllantirish va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish loyihalarini ishlab chiqish jarayoniga aholini faol jalb etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–5250-son qarori qabul qilindi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ–5072-son qaroriga asosan, "Ochiq budget" axborot portalini 2021-yilning 1-iyulidan boshlab respublikaning barcha tuman va shaharlarida jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish va moliyalashtirish bo'yicha loyiha sifatida to'liq ishga tushirildi.

2021-yilda yangilangan talqinda o'tkazilgan dastlabki "Tashabbusli budget" jarayoni uch bosqichda amalga oshirildi. "Ochiq budget" axborot portalida ro'yxatdan o'tgan fuqarolar tomonidan jami 41 125 ta taklif bildirildi. Takliflar tahliliga ko'ra, fuqarolarni eng ko'p qiynab kelayotgan muammolar qatorida ichki yo'llarni ta'mirlash va tartibga keltirish masalalari yetakchi o'rin egallagan — bu yo'nalishda 13 853 ta, ya'ni jami takliflarning 34 foizi qayd etilgan.

Hududlar kesimida eng ko'p takliflar Qoraqalpog'iston Respublikasi (6 523 ta), Buxoro viloyati (5 651 ta) va Namangan viloyati (4 414 ta) hududlaridan kelib tushgan.

Kelib tushgan takliflardan 21 833 tasi (53 foiz) hududlarda tashkil etilgan ishchi komissiyalar tomonidan belgilangan mezonlarga muvofiq deb topilib, ovoz berish jarayoniga o'tkazilgan. Ovoz berish jarayoni davomida mamlakat bo'ylab jami 1 149 ming nafar fuqaro o'zlarini qiziqitirgan takliflarga ovoz berdi. Shundan 95,0 ming nafar fuqaro portalda ro'yxatdan o'tgan holda, 988,4 ming nafar fuqaro SMS qisqa xabar orqali, hamda internet tarmog'iga ulanish imkoniyatiga ega bo'lmagan 65,9 ming nafar fuqaro esa oflayn tizim orqali ovoz bergan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-sentyabrdagi PQ–5250-son qaroriga asosan, tuman va shahar hokimliklari qoshida tashkil etilgan "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga (Jamg'arma) Respublika budgetidan jami 117,4 mlrd so'm mablag' yo'naltirildi. Ushbu mablag'lar quyidagi mezonlar asosida taqsimlandi:

- Jamg'armada 1 mlrd so'mdan kam mablag' shakllangan tuman va shaharlar uchun qo'shimcha 57,9 mlrd so'm;
- "Ochiq budget" axborot portalini orqali 100 tadan ortiq taklif kelib tushgan tuman va shaharlar uchun qo'shimcha 59,5 mlrd so'm ajratildi.

Yakuniy ma'lumotlarga ko'ra, ovoz berish jarayoniga o'tkazilgan jami 22 966 ta taklifdan 1 599 tasi g'olib deb topilib, ular uchun 530,5 mlrd so'm mablag' yo'naltirildi. Bu natija tashabbusli budget tizimining mamlakat miqyosida fuqarolar ishtirokini ta'minlashdagi real samaradorligini ko'rsatadi.

2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili" Davlat dasturining 21-maqsadiga muvofiq, joriy yildan boshlab barcha tuman va shahar budgetlarining 5 foiz qismi fuqarolar tashabbuslarini amalga oshirishga yo'naltirilishi belgilangan. Shu maqsadlar uchun 2022-yilda tuman va shahar budgetlari hisobidan 1,5 trln so'm, shuningdek, ularning qo'shimcha mablag'larining kamida 30 foizi hisobidan qariyb 400 mlrd so'm yo'naltirildi.

2022-yilda o'tkazilgan "Tashabbusli budget" jarayonlarida respublika bo'ylab fuqarolar tomonidan 131 mingdan ortiq loyiha ilgari surildi. Saralash bosqichidan o'tgan 77,9 mingta ijtimoiy ahamiyatga ega loyiha ovoz



berish jarayoniga o'tkazildi. Ovoz berish jarayonida fuqarolar tomonidan 14 milliondan ortiq ovoz berildi, bu esa jarayonning keng qamrovli ommalashganini ko'rsatdi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-apreldagi PQ-197-son qarori ("Tuman va shahar budgetlari mablag'larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo'naltirish jarayonlarida fuqarolarning ishtirokini yanada qo'llab-quvvatlash to'g'risida") va 2022-yil 25-oktyabrdagi PQ-409-son qarori ("Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko'lamini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida")ga asosan, har biri 2 mingdan ortiq ovoz to'plagan, ammo g'olib deb topilmagan 503 ta loyiha ham qo'shimcha tarzda g'olib deb e'tirof etildi. Ushbu loyihalarni amalga oshirish uchun 420 mlrd so'm mablag' ajratildi. Yil yakunlariga ko'ra, jami 4 136 ta loyiha g'olib deb topilib, ular uchun 2,5 trln so'm mablag' yo'naltirildi.

2023-yilda o'tkazilgan "Tashabbusli budget" jarayonlarida respublika bo'ylab fuqarolar tomonidan 105 mingdan ortiq loyiha ilgari surildi. Ulardan 67,1 mingta loyiha saralash bosqichidan o'tib, jamoat manfaatlariga xizmat qiluvchi tashabbuslar sifatida ovoz berish jarayoniga qo'yildi. Ovoz berish jarayonida fuqarolar tomonidan 34 milliondan ortiq ovoz berildi.


Bu jarayonlarda mamlakatning 9 444 ta mahallasidan deyarli barchasi o'z loyihalari bilan ishtirok etdi.

G'olib loyihalar tahliliga ko'ra, quyidagi yo'nalishlar yetakchi o'rinlarni egalladi:

- 1 605 ta umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash;
- 1 076 ta ichki yo'llarni ta'mirlash;
- 595 ta sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash;
- 184 ta maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash;
- 125 ta ko'cha yoritish tizimini o'rnatish yoki ta'mirlash;
- 63 ta ichimlik suvi va oqava tizimini yaxshilash loyihalari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-apreldagi PQ-117-son qaroriga ("Tashabbusli budgetlashtirish amaliyotini yanada takomillashtirish hamda faol mahallalarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida") asosan, 2023-yilning fevral-aprel oylarida o'tkazilgan "Tashabbusli budget" jarayonlarida har biri 2 mingdan ortiq ovoz to'plagan, ammo g'olib deb topilmagan 1 309 ta loyiha uchun 1 311 mlrd so'm mablag' ajratildi. Yil yakuniga kelib, ikkala mavsum doirasida jami 4 183 ta loyiha g'olib deb topilib, ularni amalga oshirish uchun 4,115 trln so'm mablag' yo'naltirildi.

Bugungi kunda mamlakatimizda fuqarolar manfaatlarini ta'minlash, yashash sharoitlarini yaxshilash va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha sezilarli o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. 2019-yildan buyon o'tkazilib kelinayotgan "Tashabbusli budget" jarayoni ushbu ijobiy o'zgarishlarning yaqqol dalilidir. Fuqarolarning jarayonlardagi ishtiroki yildan-yilga ortib borayotgani bu mexanizmning jamiyat hayotida tobora muhim ahamiyat kasb etayotganini tasdiqlaydi. O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, fuqarolarning budget qarorlarini shakllantirishda faol ishtiroki davlat boshqaruvida shaffoflik, ochiqlik va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish orqali mahalliy darajada iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy adolatni ta'minlashning samarali vositasiga aylangan (1-rasm; 1,2,3,4-jadval).



1-rasm. Tashabbusli budget jarayonga fuqarolarning jalb etilishi yillar kesimida



1-jadval. «Ochiq budget» axborot portalida o'tkazilgan Tashabbusli budget jarayoni natijalari to'g'risida yillar kesimida

MA'LUMOT

T/p	Худуд номи	2021 йил жами*				2022 йил жами				2023 йил жами			
		Ажратилган маблаг (млн)	Келиб тушган тақлифлар сони	Ғолиб деб топилган тақлифлар сони	Берилган овозлар сони (минг)	Ажратилган маблаг (млрд)	Келиб тушган тақлифлар сони	Ғолиб деб топилган тақлифлар сони	Берилган овозлар сони (минг)	Ажратилган маблаг (млрд)	Келиб тушган тақлифлар сони	Ғолиб деб топилган тақлифлар сони	Берилган овозлар сони (минг)
	ЖАМИ	530 500	41 125	1 594	1 149 499	2 537	131 265	4 136	14 511 857	4 115	105 434	4 183	34 244 850
1	Қорақалпоғистон Республикаси	38 600	3 501	104	221 226	122 678	15 250	234	429 618	205	5 952	225	690
2	Андижон вилояти	38 842	1 652	149	82 908	204 992	4 740	287	1 120 357	327	5 992	297	1 600
3	Бухоро вилояти	36 278	2 329	117	106 636	143 780	14 030	282	825 963	268	6 496	297	1 106
4	Жиззах вилояти	30 999	6 523	145	75 421	124 232	6 228	165	589 312	214	3 221	200	796
5	Қашқадарё вилояти	41 380	2 404	74	95 414	238 918	9 367	332	1 432 327	410	9 862	361	2 577
6	Навоий вилояти	32 981	4 414	107	100 705	101 708	5 119	221	538 590	164	6 483	201	590
7	Наманган вилояти	38 476	5 651	107	74 111	212 575	8 981	314	1 569 070	373	6 688	425	1 485
8	Самарқанд вилояти	38 688	2 255	118	97 425	246 356	6 551	381	1 387 244	406	6 186	403	1 962
9	Сурхондарё вилояти	33 591	1 453	104	89 311	207 823	20 976	279	1 450 409	320	21 874	290	701
10	Сирдарё вилояти	24 472	2 783	103	44 582	63 793	5 178	244	357 436	93	3 353	187	1 113
11	Тошкент вилояти	43 835	2 059	105	64 196	233 775	7 469	393	1 162 416	337	5 849	360	1 319
12	Фарғона вилояти	48 168	2 206	96	18 372	304 544	6 310	436	2 407 218	490	5 840	432	2 509
13	Хоразм вилояти	34 847	2 300	154	34 215	158 392	10 336	250	897 899	241	7 987	238	1 113
14	Тошкент шаҳар	49 345	1 591	111	44 977	172 365	10 730	318	343 998	265	9 651	267	799

2-jadval. «Ochiq budget» axborot portalida o'tkazilgan Tashabbusli budget jarayonining natijalari to'g'risida sohalar kesimida yillik

MA'LUMOT

T/p	Худуд номи	Шу жумладан соҳалар кесимида							
		Жами	Умумтаълим мактабларини таъмирлаш	Ички йўлларни таъмирлаш	Ичимлик суви ва оқава тизимини яхшилаш	Кўча чироқларини ўрнатиш ёки таъмирлаш	Соғлиқни сақлаш муассасаларини таъмирлаш ва жихозлаш	Мактабгача таълим муассаса-ларини таъмирлаш ва жихозлаш	Бошқа тадбирлар
ЖАМИ		9 913	3 380	2 512	363	354	1 021	544	1 739
1	2021 йил*	1 594	367	408	131	115	64	35	474
2	2022 йил	4 136	1408	1028	169	114	362	325	730
3	2023 йил	4 183	1605	1076	63	125	595	184	535

*Izoh: «Tashabbusli budget» jarayonlari 2021-yilda eksperiment tariqasida bir marotaba o'tkazilgan.

3-jadval. «Ochiq budget» axborot portalida o'tkazilgan Tashabbusli budget jarayonida qo'shimcha ravishda ajratilgan mablag'lar bo'yicha yillar kesimida

MA'LUMOT

T/p	Худуд номи	2021 йил (Асос: ПҚ-5250)	2022 йил (Асос: ПҚ-197; ПҚ-409)		2023 йил (Асос: ПҚ-117)	
		Ажратилган маблағ (млн)	Ажратилган маблағ (млн)	Қўшимча ғолиб деб топилган таклифлар сони	Ажратилган маблағ (млн)	Қўшимча ғолиб деб топилган таклифлар сони
ЖАМИ		117 416	420 072	503	1 310 928	1 309
1	Қорақалпоғистон Республикаси	13 003	2 200	2	27 513	29
2	Андижон вилояти	17 521	43 832	49	113 706	111
3	Бухоро вилояти	11 747	19 313	30	45 820	50
4	Жиззах вилояти	10 249	28 765	28	87 760	82
5	Қашқадарё вилояти	2 625	38 748	37	141 047	128
6	Навоий вилояти	8 617	15 383	22	47 733	57
7	Наманган вилояти	7 183	46 130	55	154 421	182
8	Самарқанд вилояти	5 430	27 017	33	137 669	135
9	Сурхондарё вилояти	5 419	53 925	46	111 754	110
10	Сирдарё вилояти	8 518	5 260	23	8 445	13
11	Тошкент вилояти	5 221	35 190	39	87 603	84
12	Фарғона вилояти	13 943	81 054	106	226 238	201
13	Хоразм вилояти	7 940	23 255	33	77 609	83
14	Тошкент шаҳар				43 610	44



4-jadval. 2021-2023-yillarda o'tkazilgan Tashabbusli budjet jarayonlarida g'olib bo'lgan mahallalar yuzasidan MA'LUMOT

T/r	Hudud nomi	Jami mavjud maqal-la	Jami qolib b'lgan maqallalar soni	%	shundan					2023 yil 2-mavsumda ilk marotaba qolib b'lgan maqal-la
					2021 yil	2022 yil 1-mavsum	2022 yil 2-mavsum	2023 yil 1-mavsum	2023 yil 2-mavsum	
	Jami	9 444	4 766	50%	1 224	1 864	1 501	2 482	1 012	273
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	452	252	56%	76	105	80	115	80	22
2	Andijon viloyati	909	389	43%	92	141	110	181	76	28
3	Buxoro viloyati	544	310	57%	109	130	98	177	58	13
4	Jizzax viloyati	308	179	58%	54	75	63	112	38	4
5	Qashqadaryo viloyati	822	404	49%	80	156	126	208	82	24
6	Navoiy viloyati	330	203	62%	76	95	60	107	47	10
7	Namangan viloyati	788	432	55%	98	136	128	270	76	22
8	Samarqand viloyati	1126	488	43%	91	173	146	254	99	33
9	Surxondaryo viloyati	724	361	50%	86	140	104	192	69	22
10	Sirdaryo viloyati	238	180	76%	77	97	72	86	54	7
11	Toshkent viloyati	1025	447	44%	105	183	140	208	106	34
12	Farqona viloyati	1062	548	52%	121	192	162	280	88	25
13	Xorazm viloyati	531	278	52%	82	116	95	144	56	14
14	Toshkent shahri	585	295	50%	77	125	117	148	83	15

2024-yilda an'anaga muvofiq tarzda Tashabbusli budjet jarayonlari ikki mavsum doirasida — yanvar-fevral hamda iyul-avgust oylarida o'tkazildi. Tashabbusli budjet jarayonini yanada takomillashtirish, ovoz berish bosqichini optimallashtirish, shuningdek, majburiy ovoz berish holatlarini kamaytirish maqsadida bir qator yangiliklar hamda qo'shimcha imkoniyatlar yaratildi¹.

Jumladan, birinchi mavsumdan boshlab "Bir fuqaro – bir ovoz" tamoyili joriy etildi hamda "Mening yo'lim" loyihasini Tashabbusli budjet jarayonining birinchi mavsumi bilan qo'shib o'tkazish belgilandi.

Ikkinchi mavsumdan boshlab esa majburiy ovoz berishga jalb etish hamda ovozlarni "sotib olish" holatlarini kamaytirish maqsadida ovoz berish bosqichi 10 kunga qisqartirildi. Xalq deputatlari tuman (shahar) kengashlari vakolatlarini kengaytirish maqsadida ularga tuman (shahar) budjeti qo'shimcha mablag'lari hisobidan qo'shimcha g'oliblarni e'lon qilish hamda majburiy ovoz to'plangan loyihalarni bekor qilish vakolati berildi.

Shu bilan birga, Tashabbusli budjet jarayonlari uchun ajratilgan mablag'lar hajmi 2023-yilga nisbatan 1,2 trln so'mga yoki 26 foizga oshib, umumiy ajratilgan mablag'lar miqdori 5,7 trln so'mni tashkil etdi.

Ikki mavsum davomida "Ochiq budjet" portaliga fuqarolar tomonidan jami 63 mingdan ortiq loyiha kelib tushdi. Shundan hududiy ishchi komissiyalar tomonidan mazkur loyihalarning 52 mingdan ortig'i yoki 83 foizi ovoz berish bosqichiga o'tkazildi. Rad etilgan loyihalarning aksariyat qismi ularni amalga oshirishning texnik imkoni mavjud bo'lmagani hamda qiymati 1,3 mlrd so'mdan oshiq bo'lgani sababli rad etilgan.

Ovozga qo'yilgan loyihalarning 20 mingtasi (39 foiz) ichki yo'llarni ta'mirlash, 7,3 mingtasi (14 foiz) ko'cha chiroqlarini o'rnatish va 6,8 mingtasi (13 foiz) maktablarni ta'mirlash hamda jihozlash loyihalariga to'g'ri keldi.

Shuningdek, 2024-yildan boshlab Tashabbusli budjet jarayonlarining birinchi mavsumidan e'tiboran "bir fuqaro – bir ovoz" tamoyili to'liq ishga tushirildi. Barcha mahallalar uchun g'olib bo'lish imkoniyatini yaratish maqsadida, Tashabbusli budjet doirasida so'nggi mavsumlarda ketma-ket ikki marotaba g'olib deb topilgan mahallalar (yoki tashkilotlar) uchun navbatdagi ikki mavsum davomida loyiha kiritish imkoniyati cheklanadi.

Mablag'lardan samarali foydalanish hamda ijtimoiy muammolarga ko'proq e'tibor qaratish maqsadida Tashabbusli budjet jarayoni doirasida tashkilotlar tomonidan barcha turdagi avtomobillar, jamoat xavfsizligini ta'minlashga oid jihozlar (radar, jamoat joylaridagi kuzatuv kameralari, "svetoforlar"), rahbar xodimlar uchun mebel jihozlarini xarid qilish taqiqlanadi.

Shuningdek, joriy yilning birinchi mavsumidan boshlab moliyaviy jihatdan mustaqil bo'lgan oliy o'quv muassasalarining "Tashabbusli budjet" jarayonlarida ishtirok etishiga cheklov o'rnatildi (5-jadval).

¹ O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi rasmiy veb-sayti ma'lumotlari



5-jadval. Tashabbusli budget doirasida 2024-yilda ovoz berish bosqichiga o'tkazilgan loyihalar yuzasidan sohalar kesimida ma'lumot²

T/r	Hudud nomi	Jami loyihalar	shundan						
			Ichki yo'llar	Umumta'-lim maktabi	Ko'cha chiroqlari	Maktab-gacha ta'lim	Tibbiyot tashkiloti	Ichimlik suvi va oqava tizimi	Boshqalar
Jami		52 255	20 396	6 823	7 311	2 351	1 780	2 057	11 537
	foizda	100%	39%	13%	14%	4%	3%	4%	22%
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	3 004	975	496	329	112	113	76	903
2	Andijon viloyati	3 610	1 762	495	527	74	151	132	469
3	Buxoro viloyati	3 642	1 507	449	476	130	135	45	900
4	Jizzax viloyati	2 510	913	458	245	90	50	67	687
5	Qashqadaryo viloyati	3 870	2 098	321	555	25	79	172	620
6	Navoiy viloyati	3 352	850	468	491	211	142	92	1 098
7	Namangan viloyati	4 089	2 015	393	618	95	119	172	677
8	Samarqand viloyati	3 878	1 663	626	394	180	176	154	685
9	Surxondaryo viloyati	4 567	1 733	732	771	195	176	311	649
10	Sirdaryo viloyati	2 285	717	295	335	120	64	86	668
11	Toshkent viloyati	3 409	1 634	470	438	120	46	108	593
12	Farg'ona viloyati	5 156	1 716	689	842	487	211	322	889
13	Xorazm viloyati	4 388	2 229	411	958	125	81	131	453
14	Toshkent shahri	4 495	584	520	332	387	237	189	2 246

Ovoz berish bosqichida fuqarolar tomonidan 20 milliondan ortiq ovoz qayd etildi. Jumladan, birinchi mavsumda 11 million, ikkinchi mavsumda esa 9 million fuqaro ovoz berishda ishtirok etib, yillik o'rtacha hisobda aholining 28 foizi ushbu jarayonlarda faollik ko'rsatdi. Ovoz berish bosqichi yakunlariga ko'ra, umumiy qiymati 5,6 trln so'mni tashkil etgan 4 768 ta loyiha g'olib deb topildi. Ushbu loyihalar uchun fuqarolar tomonidan 16 milliondan ortiq ovoz berildi.

2024-yilda ajratilgan mablag'lar hajmining oshishi hisobiga bir tuman yoki shaharda g'olib loyihalar soni 2023-yilga nisbatan o'rtacha 6–8 tadan 13–15 tagacha oshgani qayd etildi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, amaldagi tartibga kiritilgan o'zgarishlarga muvofiq, Xalq deputatlari tuman (shahar) kengashlari o'zlariga berilgan vakolatdan foydalangan holda tuman (shahar) budjeti qo'shimcha mablag'lari hisobidan 56 ta loyiha uchun qo'shimcha mablag' ajratib, ularni g'olib sifatida e'lon qildi.

G'olib bo'lgan loyihalarning 1 686 tasi (35 foiz) ichki yo'llarni ta'mirlashga, 1 446 tasi (30 foiz) esa maktablarni ta'mirlash va jihozlashga to'g'ri keldi.

Ma'lumot uchun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi 5072-sonli "Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga asosan amaldagi tartib o'zgartirilib, tuman (shahar) budjeti qo'shimcha manbalarining kamida 10 foizi emas,

² O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi "Ochiq byudjet" axborot portali (<https://openbudget.uz/>)



balki 30 foizini yo'naltirish hamda 2022-yil 1-yanvardan e'tiboran respublikaning barcha tuman (shahar) larida tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining 5 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirishga erishildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktyabrdagi PQ-409-son "Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, joylarda fuqarolarni qiynab kelayotgan dolzarb muammolarni hal etish miqyosini kengaytirish maqsadida 2023-yildan boshlab Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar budjeti qo'shimcha mablag'larining 30 foizi hamda tuman (shahar) budjetlarining 5 foizi miqdorida, biroq kamida 6 mlrd so'mdan kam bo'lmagan mablag'lar fuqarolar fikri asosida shakllantirilgan loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda ushbu amaliyotni Farbiy va Sharqiy Yevropadagi 20 dan ortiq Davlatlar, jumladan Lotin Amerikasi mamlakatlari, AQSh, Xitoy, Janubiy Koreya va boshqa ko'plab davlatlar bu tizimni muvaffaqiyatli qo'llab kelmoqda. Shu bois, respublikamizda davlat moliyasini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish doirasida budjet jarayonida fuqarolarning ishtirokiga asoslangan budjetlashtirishning zamonaviy usullarini keng joriy etish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bugungi o'zgarishlar va islohotlar sharoitida tashabbusli budjetlashtirishning nazariy hamda amaliy jihatlarini har tomonlama o'rganish va tatbiq etish dolzarb masalalardan biridir.

Budjet masalalarini muhokama qilish nafaqat shahar, balki qishloq hayotining ham ajralmas qismiga aylandi. Ushbu jarayon butun dunyoda kechmoqda. Tashkilotchilar bu bir martalik aksiya emasligini ta'kidlab, turli auditoriyalar uchun o'tkaziladigan o'qitish, ta'lim, targ'ibot, fuqarolarni xabardor qilish, ijtimoiy reklama va yangi media vositalari orqali ishtirokni rag'batlantirish tadbirlari orqali fuqarolarda ovoz berish orqali ijtimoiy muammolarni hal etish mumkinligi haqidagi ishonch va imkoniyatni shakllantirishga erishgan. Bu esa, albatta, mazkur loyiha doirasidagi ilmiy-tadqiqot ishlarining amaliy muvaffaqiyatini ifodalaydi.

Foydalnilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги "2022 – 2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги ПФ-60-сонли Қарори
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 13 апрелдаги "Бюджет жараёнида фуқароларнинг фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора- тadbirlar тўғрисида"ги ПҚ-5072-сонли Қарори
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 22 сентябрдаги "“Очиқ бюджет» ахборот портали орқали жамоатчилик фикри асосида шаклланган тadbirlarни молиялаштиришни янада кенгайтириш чора-тadbirlari тўғрисида"ги ПҚ-5250-сонли Қарори
4. Файбуллаев О., Ўроқов У. Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва жараёни. Ўқув қўлланма. – Т.: "Бактрия пресс", 2016 й.
5. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги "Iqtisodiy ta'limotlar tarihi" maruzalar matni (А.Исломов, Э. Эгамов) 2009 й.
6. Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги расмий веб-сайти (Бюджетнома 2021 йил ҳамда 2022-2023 йиллар бюджет мўлжаллари)
7. Cascais' Participatory Budget: an Inspiring Example, <https://urbact.eu/cascais'-participatory-budget-inspiring-example>
8. Gianpaolo Baiocchi. Militants and Citizens: The Politics of Participatory Democracy in Porto Alegre. Stanford University Press, 2003.
9. Brian Wampler. Participatory Budgeting in Brazil: Contestation, Cooperation, and Accountability. Pennsylvania State University Press, 2007.
10. Yves Cabannes. Participatory Budgeting: A Significant Contribution to Participatory Democracy. Environment and Urbanization. – London: Sage Publications, 2004.
11. Yves Sintomer, Carsten Herzberg, Anja Röcke. Participatory Budgeting in Europe: Democracy and Public Governance. Routledge, 2016.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
